TARQATMA MATERIALLARNI TAYYORLASH VA CHOP ETISH BO‘YICHA

TEXNIK TOPSHIRIQ

Loyiha nomi: “O‘zbekistonda inklyuziv jamoatchilik taraqqiyoti uchun fuqarolik jamiyati imkoniyatlarini kengaytirish”

Amalga oshiruvchi tashkilot: Konrad Adenauer jamg‘armasi va “Yuksalish” harakati

1. Kirish

Mazkur texnik topshiriq loyiha doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar ishtirokchilari uchun mo‘ljallangan sifatli tarqatma va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash, dizaynini ishlab chiqish hamda chop etish xizmatlarini ko‘rsatishni nazarda tutadi.

2. Talab etiladigan materiallar ro‘yxati va texnik ko‘rsatkichlari

№	Material nomi	Miqdori (dona)	Texnik tavsifi (minimal talablar)
1	**Loyiha logotipi tushirilgan bloknot**	80	**Bichimi:** A5. Muqovasi: 300 gr/m^2 zichlikdagi qog‘oz, rangli chop etish (4+4). Ichki varaqlari: 50-60 varaq, 80 gr/m^2 (oq qog‘oz), katakli yoki chiziqli. Prujinali (spiral) mahkamlagich.
2	**Loyiha logotipi tushirilgan ruchka**	80	**Turi:** Sifatli plastik yoki ekologik (qog‘ozli) korpus. Siyohi: Moviy. Korpusiga loyiha va hamkorlar logotipini (tampon bosma) tushirish.
3	**Loyiha logotipi tushirilgan qog‘oz paketlar**	80	**Material:** Kraft qog‘oz yoki 200-250 gr/m^2 zichlikdagi laminatsiya qilingan sifatli qog‘oz. O‘lchami: A4 formatdagi hujjatlar va bloknot sig‘adigan darajada. Logotip va yozuvlar ikki tomonlama chop etilishi lozim.
4	**Broshurakar**	70	**Bichimi:** A5 ёки A4 (buklangan). Sahifalar soni: Dizaynga ko‘ra (taxminan 8-16 bet). Qog‘oz: 150-170 gr/m^2 (glossy/mat). To‘liq rangli sifatli chop etish.
5	**Flayerlar**	80	**Bichimi:** A5. Qog‘oz: 130-150 gr/m^2 zichlikdagi qog‘oz. Ikki tomonlama to‘liq rangli (4+4) chop etish.

3. Umumiy talablar

Dizayn: Barcha materiallarning dizayni Yevropa Ittifoqi, Konrad Adenauer jamg‘armasi (KAS) ва “Yuksalish” harakatining brandbook (brend ko‘rsatmalari) talablariga to‘liq mos kelishi shart. Dizayn maketlari buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi. Chop etishdan oldin buyurtmachi bilan kelishiladi.

Sifat: Chop etilgan materiallarda ranglar xiraligi, yozuvlar tushib qolishi yoki qog‘oz nuqsonlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yetkazib berish: Tayyor mahsulotlar Toshkent shahri Furqat ko‘chasi 1/1-uy manzilga bepul yetkazib berilishi lozim.

4. To‘lov shartlari ва topshirish muddati

Topshirish muddati: Shartnoma imzolangandan va dizayn tasdiqlangandan so‘ng 5-7 ish kuni ichida.

To‘lov: Shartnoma asosida pul o‘tkazish yo‘li bilan (oldindan to‘lov maksimal 50%).

5. Saralash mezonlari

eng yaxshi taklif;

uzoq yillik tajriba (kamida 2 yil);

mahsulot namunalarining sifati (agar talab etilsa).